

PSIXOLOGIYA FANI VA UNING RIVOJLANISH TARIXI

Yusufaliyeva Mushtariybegim Qosim qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi

O'zbekiston Milliy universiteti 3-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16923911>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Psixologiya fanining tarixi, ushbu sohadagi olimlarning qarashlari, psixologiya fani tarmoqlari, bugungi kundagi psixologiya fanining ahamiyati borasida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Psixologiya, ruh, psixika, ong, fan tarmoqlari, psixologiya olimlari qarashlari.

Kirish. Psixologiya ruh haqidagi fan (er.av VI asr – eramizning XVI asr). Har bir olim ruh haqidagi o'z ta'limotlarini ilgari surishga harakat qilgan. Birlamchi tushunchalar animistik xarakterga ega bo'lgan, ya'ni "har bir predmetning o'z qalbi bor"-deb e'tirof etilgan. Ruhning har bir predmetda mavjudligini harakat va ko'rinishda aks ettirilganini kuzatganlar. Arastu barcha organik jarayonlarda psixik jarayonlar aks etgan deb aytib o'tgan. O'simliklar dunyosi va hayvonot olamiga ruh ta'limotini kiritgan.[6]

So'ngra psixika haqida ikkita qarama-qarshi fikr paydo bo'lgan: materialistik (Demokrit) va idealistik (Aflotun). Demokritning fikriga ko'ra psixika o'z tabiatiga ko'ra moddiy hisoblanadi, ruhning holati kichik atomlardan tashkil topgan, atomlar jismoniy tanada aks etganlar. Dunyoni bilish psixika va organizmning tashqi dunyo bilan o'zaro aloqalaridan tarkib topgandir. Aflotunning fikriga ko'ra ruh mukammal hisoblanadi. Dunyoni anglash esa mukammal ruhdagi g'oyalar dunyosini anglashdan iboratdir, ruh inson tanasiga tushmasdan oldin ham rivojlanadi.

Psixologiya ong haqidagi ta'limotdir (XVII-XIX asrlar). Psixologiya ong ta'limoti ortida anchagina rivojlanishga ega bo'lgan. Ayni psixologiya sohasidagi qarashlar eksperimental psixologiyaga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Uzoq vaqtlar davomida psixologiya tabiiy, ijtimoiy fanlardan ajratilib o'rganiladigan ilm sohasi sifatida qaralgan. Buning asosiy sababi shundaki, o'sha paytlarda psixologiya, inson ruhi idealistik nuqtai nazaridan talqin etilgan. Psixologiya oldida turgan asosiy funksiya asosan inson ichki olamini o'rganish bo'lib, bu ichki olamga tashqi dunyoga aloqasiz ravishda Irganizm ichida paydo bo'ladigan ichkarida kechadigan jarayonlar, holatlar sifatida talqin etilgan. R.Dekart hayvonlarning ruhi yo'q degan fikrni aytib o'tgan. Hayvonlarning xatti-harakati reflekslar deb ataladi. Uning fikriga ko'ra ongning paydo bo'lishi va tafakkurning rivojlanishi ichki nutq orqali shakllanar ekan. Dj.Lokkning fikriga ko'ra ong insonning hissiyotlari orasiga yashiringandir, u ongni atomik tarzda tahlil qilish usulini qo'llagan, bunga ko'ra psixik holatlar birlamchi holatlar sifatida e'tirof etilgan [7]. Psixologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanishi 1879-yillarga borib taqaladi. Negaki, ushbu yilda olim Vilgelm Vundt tomonidan dunyoda birinchi eksperimental psixologiya laboratoriyasi tashkil etiladi. Psixologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanishiga albatta shartli reflekslar haqidagi ta'limotlar va psixik kasalliklarni davolash usullarining tadqiq etilishi va umuman, fiziologiya fanining rivojlanishi asos bo'ldi. Psixologik eksperimentlarning o'tkazilishi albatta mustaqil fan sifatida shakllanishiga asos yaratildi.

Psixologiyaning predmeti psixika bo'lganligi sababli uning asosiy funksiyasi ob'ektiv dunyo haqidagi jarayonlarni aks ettirishni hisobga oladi. Psixologiya boshqa fanlar qatori falsafa fanining negizida vujudga keldi. Falsafa aynan bilish nazariyalari psixika haqidagi

tasavvurlarni tahlil qiladi. Bunda psixika birlamchi, ong ikkilamchi holatlar sifatida e'tirof etiladi. Psixologiya inson faoliyatida psixikani va uning rivojlanishini o'rganadi. Psixologiya barcha fanlarni integratsiya qilib, ularga ta'sir ko'rsatadi va ular insoniy bilimlarning umumiy modeli sifatida talqin qilinadi. Psixologiya faoliyatni tadqiq qilish va insonning aqliy, amaliy faoliyatini tahlil qilish imkoniyatini yaratadi.

Psixologiya va falsafa. Psixologiya falsafaning tarkibida shakllanib, 1879 yilda mustaqil fan sifatida tarkib topdi. Psixologiyada falsafaning ikki yo'nalishi saqlanib qolgan: materialistik va idealistik. Idealizm (fransuzchadan idealisme) — idealizm: falsafaning bosh masalasida-ongning borliqqa munosabati masalasida materializmga qarama - qarshi o'laroq ong, ruh birlamchi, moddiy dunyo, borliq esa ikkilamchi, “ong, sezgi, tasavvur va tushunchalarning mahsulidir”-deb da'vo qiluvchi g'ayri ilmiy falsafiy oqim. Materializm (lotincha materialis — moddiy) materialism falsafasidagi ikki asosiy oqimdan biri, ya'ni idealizmga qarama-qarshi o'laroq, birdan-bir ilmiy, tarixan progressiv dunyoqarashdir. Materializm, dunyo o'z tabiatiga ko'ra moddydir, materiya, tabiat, borliq, inson ongidan tashqari unga bog'liq bo'lmagan holda mavjuddir, material birlamchi hamda sezgilarning manbai sifatida qaraydi.[9]

Pedagogika va psixologiya. Pedagogika o'qitish metodikalarini psixologiya metodikalaridan o'zlashtiradi, bundan tashqari qobiliyatlarga nisbatan yondashuvlar xam psixologik jarayonlardan olingan. Boshqa fanlarning qo'shilishi natijasida pedagogiya fani vujudga kelgan. Pedagogiya 20 asrning birinchi yarmida mavjud bo'lgan fanlardan biri hisoblanib, hozirgi kunda bunday fan mavjud emas.

Akademik psixologiya psixik ko'rinishlarni, holatlarni va jarayonlarni o'rganadi, u nafaqat insonlarni, balki hayvonlardagi psixik o'zgarishlarni ham o'rganadi. *Tatbiqiy psixologiya* psixologik qonuniyatlarning umumlashmasini, ularning ma'lum bir sohadagi kasbiy faoliyatini o'rganadi. *Amaliy psixologiya* psixologik bilimlarning amaliy tomonlarini tahlil qiladi.

Xulosa: Hozirgi vaqtda ko'pchilik insonlar psixologiyani bilishi va shu bilan birga ma'lum darajada psixologik bilimlardan va psixologik o'zgarishlardan xabardor bo'lishlari mumkin. Masalan, ijtimoiy muhitdagi har bir inson psixologik ma'lumotlarni har xil internetdan, gazeta va jurnallardan, psixologik kitoblardan olishi mumkin. Va shu bilan bir qatorda odamlar psixologik faktlarga ko'proq qiziq boshlagani sari psixologiyani o'rganishga ishtiyoq ko'tarilgan. Ushbu qiziqishlar insonda undagi psixik hayotni va boshqa kishilar psixikasini o'rganishga yo'l ochadi. Bu bilim esa boshqa kishilarni va o'zini yaxshiroq tushunishga imkon beradi. Xulosa qilib aytganda, bugunga kelib psixologiyaning fan doirasida tarmoqlarining kengligi, pedagogika, sport, tibbiyot, laboratoriya va boshqa bir qator sohalardagi rivoji, yondashuvlari fan rivojiga keng xissa qo'shmoqda. So'nggi yillarda mamlakatda psixologiya sohasida amaliyotchi psixologlar faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid bir qator ishlar amalga oshirildi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Myers, D. G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010. P. 563-572.
2. MUXAMEDOVA D.G'., MULLABOEVA N.M., RASULOV A.I. “Umumiy psixologiya” darslik. 2017

3. Jo'rayev N.S. J-96 Psixologiya tarixi [Mata]: o'quv qo'llanma / N.S. Jo'raev; - Toshkent, «Noshir» nashriyoti, 2019. 232-b.
4. E.G',G'oziyev "Psixologiya" darslik;

INNOVATIVE
ACADEMY